

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**SHERMAMATOVA ZAYNAB AZIMJON QIZI**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TABU  
SO‘ZLARNING IJTIMOYIY-LINGVISTIK TAHLILI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Shermamatova Zaynab Azimjon qizi**

Ingliz va o‘zbek tillarida tabu so‘zlarning ijtimoiy-lingvistik tahlili..... 3

**Шермamatова Зайнаб Азимжон кизи**

Социо-лингвистический анализ табуированных слов в английском и  
узбекском языках..... 25

**Shermamatova Zaynab Azimjon kizi**

A socio-linguistic analysis of taboo words in English and Uzbek languages ..... 51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 56

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**SHERMAMATOVA ZAYNAB AZIMJON QIZI**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TABU  
SO‘ZLARNING IJTIMOYIY-LINGVISTIK TAHLILI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3616 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdhti.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim tarmog'ining (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Sulaymanova Nilufar Jabbarovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Ruziyeva Sitora Asrorovna**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Andijon davlat chet tillar instituti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "24" aprel soat 12<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks (99878) 210-00-18 ; e-mail:info@samdhti.ru).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. 62975-raqami bilan ro'yxatga olingan.) Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "9" aprel kunida tarqatildi.  
(2026-yil "9" aprel daqi 23 -raqamli reyestr bayonnomasi).



**N.Z. Nasrullayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**O'.O'. Qo'ldoshov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D.A. Kiselyov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida tabu soʻzlarning ijtimoiy-lingvistik tahlili muhim tadqiqot yoʻnalishlaridan biri boʻlib, u matn nazariyasi, pragmatik lingvistika, funksional stilistika, funksional sintaksis va funksional leksikologiya kabi sohalarning diqqat markazida turmoqda. Shuningdek, ingliz va oʻzbek tillaridagi tabu soʻzlarning lingvistik, ijtimoiy-madaniy va pragmatik xususiyatlarini oʻrganish semantik tuzilishni tahlil qilish bilan birga, madaniyatlararo muloqotdagi taʼsirini aniqlashga xizmat qiladi. Bu esa tilshunoslikda insonning nutqini oʻrganishni maqsad qilgan zamonaviy yoʻnalishlar: sotsiolingvistika, pragmalingvistika, kognitiv lingvistika, neyrolingvistika, psixolingvistika kabi sohalarning rivojlanayotgani bilan ham bogʻliqdir. Tabuning shakllanishini va undagi semantik, kommunikativ belgi-xususiyatlarning tahlilini ushbu sohalarning rivojida erishilgan yutuqlar asosida oʻrganishning zarurati ushbu ishning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanmoqda.

Dunyo tilshunosligida tabu soʻzlarning ijtimoiy-lingvistik tadqiqi bugungi kunda muhimdir, bunday birliklarning sotsiolingvistik, pragmalingvistik va kommunikativ yondashuv asosida oʻrganilishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Tabu hodisasi turli madaniyatlarda axloqiy, diniy, psixologik va ijtimoiy cheklovlar bilan shakllangan boʻlib, ularning tilda qanday namoyon boʻlishi lingvistika va madaniyatshunoslik kesishmasida muhim ilmiy masala sifatida qaraladi. Tabu soʻzlar til tizimidagi semantik modifikatsiyalar, evfemizatsiya, disfemizatsiya, konnotativ maʼno oʻzgarishlari kabi jarayonlar bilan chambarchas bogʻliqdir. Tilshunoslikda bu fenomen lingvistik tabulashish, pragmatik cheklovlar, psixolingvistik oʻziga xosliklar hamda madaniy va tarixiy oʻzgarishlar kontekstida tahlil qilinadi. Xususan, ingliz va oʻzbek tillaridagi tabu soʻzlarning lingvistik, sotsiopragsmatik va madaniy jihatlarini oʻrganish nafaqat ularning semantik tuzilishini tahlil qilish, balki jamiyatdagi axloqiy meʼyorlar va ijtimoiy qadriyatlar bilan bogʻliqligini ochib berish zaruratga aylanmoqda.

Mamlakatimizda oʻzbek tilining ijtimoiy hayotdagi va xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. “Oʻzbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotidagi va xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy anʼana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilining toʻlaqonli joriy etilishini taʼminlash muhim vazifa sifatida belgilangan”<sup>1</sup>. Natijada, Oʻzbekistonda yashovchi turli millat va elatlarning tillarini asrab-avaylash va rivojlantirish, davlat tili sifatida oʻzbek tilini oʻrganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish boʻyicha strategik maqsad va ustuvor yoʻnalishlar belgilab berilgan. Ushbu jarayonda tilning turli sotsiolingvistik jihatlarini, xususan, tabu soʻzlarning ijtimoiy-lingvistik xususiyatlarini oʻrganish muhim ilmiy yoʻnalishlardan biri sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

---

<sup>1</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5058351>. (murojaat sanasi 20.04.2025).

konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF–6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ–4884-sonli “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida tabu so‘zlar va ularning evfemizatsiyasi masalasi ko‘plab olimlar tomonidan keng o‘rganilgan bo‘lib, ulardan ushbu sohada muhim tadqiqotlar olib borgan olimlar Anna-Brita Stenstrom, Karen Stolznow, Keyt Allan, Keyt Burridjelarning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi<sup>2</sup>. Anna-Brita Stenstromning ilmiy maqolasida London va Madriddagi o‘smir qizlarning suhbatlarida tabu so‘zlarning ishlatilishi solishtirilgan va yoshlar nutqida tabu so‘zlarning o‘rni, ularning madaniy farqlari tahlil qilingan. Karen Stolznowning ilmiy maqolasida Avstraliyada ingliz tilidagi haqoratli so‘zlarning ma’nosi, ishlatilish sohasi va ijtimoiy ta’siri o‘rganilgan. Maqolada Avstraliya ingliz tilidagi “whinger”, “wower” va “wanker” kabi haqoratli atamalarning ma’nosi, qo‘llanilishi va madaniy ahamiyati tahlil qilingan. Keyt Allan va Keyt Burridje tomonidan yozilgan “Taqiqlangan so‘zlar: Tilshunoslikda tabu va senzura” asarda turli tillarda tabu so‘zlarning kelib chiqishi, rivojlanishi va ularning jamiyatdagi o‘rni chuqur tahlil qilingan.

MDH davlatlari, xususan, rus tilshunosligida tabu so‘zlarning turli aspektlari keng tadqiq etilgan. Xususan, Y.V.Popova, E.Y.Golovanova, O.A.Ruter, G.N.Salimova<sup>3</sup> singari tilshunoslarning tadqiqotlarida tabu so‘zlarning leksik, kommunikativ, madaniy va diskursiv jihatlari yoritilgan.

---

<sup>2</sup> Stenström Anna-Brita. Taboo words in teenage talk: London and Madrid girls' conversations compared. Spanish in context. 2006.; Karen Stolznow. "The semantics and usage of abusive epithets in Australian English". Proceedings of the 2003 Conference of the Australian Linguistic Society; Keith Allan & Kate Burridge, Forbidden Words. Taboo and the Censoring of Language. – Cambridge: University Press, 2007, 303 p.

<sup>3</sup> Попова Я.В. Коммуникативная обработка табуированных речесмыслов в институциональном дискурсе: Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Красноярск, 2014. – С. 57.; Голованова Е. Ю. Эвфемизация табуированных соматизмов (на материале французского и русского языков): Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Уфа, 2005. – С.11.; Рутер О.А. Табу в фольклорных поэмах М. Цветаевой: лингвистический аспект: Автореф. дис. кан. филол. наук., 2007. – С: 259; Салимова Г. Н. Коммуникативные табу в английской лингвокультурной общности (на материале британского кинематографа XXI века): Автореф. дис. кан. филол. наук. – Уфа, 2020. – с. 243.

G.N.Salimova o‘z dissertatsiyasida tabu so‘zlarning institutsional nutq doirasida shakllanishi, ularning til tizimidagi o‘zgarishlari va lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, Y.V.Rojdestvenskiy, A.V.Blinov, A.A.Reformatskiylar<sup>4</sup>ning ishlarida tabu va evfemiya munosabati, tabu so‘zlarning kommunikativ vaziyatga ko‘ra tanlanishi hamda nutqda ularni almashtiruvchi vositalarning shakllanish mexanizmlari haqida ma’lumot berilgan. Ingliz tilida uchraydigan tabu so‘zlarni evfemizmgga uchrashi xususida I.V.Arnold<sup>5</sup> ham o‘z ishlarida ma’lum darajada fikr bildirgan.

O‘zbek tilshunosligida tabu so‘zlarning o‘rganilishi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kuzatiladi. Bu borada dastlabki izlanishlar, asosan, umumiy tilshunoslik doirasida, so‘z madaniyati va etnolingvistika nuqtayi nazaridan olib borilgan. Jumladan, o‘zbek tilshunosligida tabu so‘zlar va ularning ijtimoiy-lingvistik tahlili bilan shug‘ullangan taniqli olimlar qatoriga J.Omonturdiyev, M.Irisqulov, M.Mirtojiyev va N.Ismatullayev, M.Abuzalova, Sh.Gulyamova, N.G‘aybullayeva, D.Rustamova, Y.Sattarova, X.Qodirova, S.Kabilova<sup>6</sup> va boshqalar kiradi. Bu olimlar va ularning izdoshlari o‘z tadqiqotlarida o‘zbek tilida tabu so‘zlarning ishlatilishi, ularning o‘rnini bosuvchi evfemizmlar hamda ijtimoiy va madaniy kontekstdagi o‘rnini tahlil qilganlar. O‘zbek tilshunosligida A.J.Omonturdiyevning “Professional nutq evfemikasi” nomli monografiyasida evfemizmlarning professional nutq tizimidagi o‘rni, ularning ijtimoiy-lingvistik va pragmatik xususiyatlari atroflicha yoritilgan. Ushbu tadqiqotda tabu va evfemizatsiya jarayonining nazariy asoslari, ya’ni tabu so‘zlarning yumshoqroq ifoda shakllariga almashtirilishi chuqur tahlil qilingan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya

---

<sup>4</sup> Рождественский Ю.В., Блинов А.В. Введение в языкознание: учеб. пособие для студ. филол. фак. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2005. – 336 с.; Реформатский А.А. Введение в языковедение: учебник для вузов – М.: Аспект Пресс, 2004. – 536 с.

<sup>5</sup> Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. – Л.: Просвещения. 1973. – 303 с.

<sup>6</sup> Омонтурдиев А., Омонтурдиев Ж. Сўз қўллаш санъати. – Термиз: Жайхун, 1994. – 60 б.; Омонтурдиев А. Бир сўз лугати. – Термиз: Жайхун, 1996. – 45 б.; Омонтурдиев А. Эвфемик воситаларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. ф. н. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 25 б.; Омонтурдиев А. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик лугати. – Тошкент, 2000. – 134 б.; Омонтурдиев А. Ўзбек нутқининг эвфемик асослари. – Тошкент: Халқ мероси, 2000. – 128 б.; Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси. – Тошкент: Фан, 2006. – 232 б.; Омонтурдиев А.Ж. Профессионал нутқ эвфемикаси (чорвадорлар нутқи мисолида): Филол.ф д-ри ... дисс. – Тошкент, 2009. – 252 б.; Исматуллаев Н. Эвфемизми в современном узбекском языке: Автореф. дисс. ... к. филол. н. – Ташкент, 1964. – 24 с.; Содиков А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981. – 266 б.; Қодирова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмлардан фойдаланиш маҳорати: Филол. ф. н. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 23 б.; Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – 288 б.; Рустамова Д. Метафорик эвфемизатсиянинг лингвокултурологик ва социопрагматик аспекти: Филол. фан. фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 50 б.; Абузалова М.Қ., Гулямова Ш.К. Публицистик эвфемизмларининг қисқача изоҳли лугати. – Тошкент: “Дизайн-пресс”, 2013. – 34 б.; Ғайбуллаева Н. Ўзбек тилида тиббий эвфемизмлар (тиббий даврий нашр материаллари асосида): Филол. фан. фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2019. – 52 б.; Ғайбуллаева Н. Ўзбек тили тиббий эвфемизмларининг қисқача изоҳли лугати. – Тошкент: Академнашр, 2019. – 77 б.; Гулямова Ш. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер хусусиятлари: Филол. фан. фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2019. – 51 б.; Гулямова Ш. Ўзбек тили гендер ҳосланган эвфемизмларнинг қисқача изоҳли лугати. – Тошкент: Академнашр, 2019. – 80 б.; Саттарова Е. А. Эвфемизмларнинг типологик ва лексикографик тадқиқи (ўзбек ва рус тиллари материаллари асосида) Филол. фан. фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2022. – 50 б.; Kabilova S. A. Ingliz va o‘zbek tillaridagi publitsistik diskursda evfemizmining lisoniy voqelanishi: Filol. fan. falsafa доктори (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2025. – 60 b.

Samarqand davlat chet tillar institutining “Til taraqqiyotining derivatsion qonuniyatlari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz va o‘zbek tillarida tabu so‘zlarning ijtimoiy-lingvistik xususiyatlarini qiyoslash, ularning jamiyatda – ijtimoiy muloqotdagi o‘rni va ishlatilish dinamikasini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tabu hodisasining ilmiy-nazariy tavsifini umumlashtirish, unga yondosh lingvistik tushunchalarni nazariy jihatdan izohlash, muammoning jahon va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilish darajasini tahlil qilish, mavjud ilmiy ishlarga munosabat bildirish hamda hodisaning lingvistik mohiyatini ingliz va o‘zbek tillari materialida ochib berish;

ingliz va o‘zbek tillarida tabu hodisasining struktur-semantik tavsifini berish, ularning leksik-semantik hamda pragmatik xususiyatlarini aniqlash, badiiy matnlardagi tabu so‘zlar va ularni almashtiruvchi evfemizmlarning qo‘llanishini dalillash;

ingliz va o‘zbek tillarida tabu hodisasining stilistik xususiyatlarini yoritish, til materiallari tahlili asosida ularning kommunikativ funksiyalarini aniqlash hamda chog‘ishtirilayotgan tillarda ularning funksional-semantik jihatlarini aniqlash;

gender nuqtayi nazaridan tabuning qo‘llanishini, bu orqali ijtimoiy munosabatlar qanday ifodalanishini, jins va ijtimoiy rollar voqelanishida tabu so‘zlarning o‘rnini aniqlash, ularning o‘zgarishi hamda turli madaniy kontekstlarga moslashuvini, shuningdek, o‘zbek va ingliz tillarida tabu so‘zlarning o‘rnini bosuvchi evfemizmlar tizimini, tabuning nutq madaniyatidagi rolini ko‘rsatish, tabuning antropotsentrik paradigma mezonlari asosidagi nutqiy maqomi belgilash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida ingliz va o‘zbek tillarida tabu so‘zlar hamda ularning ijtimoiy-lingvistik tahlili tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** ingliz va o‘zbek tillaridagi tabu so‘zlarning semantik, pragmatik xususiyatlarini o‘rganish masalasi tashkil etadi. Tadqiqotda tabu so‘zlarning stilistik xususiyatlari, ularning kommunikativ funksiyalari, tabuning gender bilan bog‘liq jihatlari hamda uning til tizimidagi o‘rni tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida falsafaning sababiyat nazariyasi va implikasiya usulidan, tilshunoslikning chog‘ishtirma tahlil, tizimli tahlil, komponent tahlil, modellashtirish, leksik-semantik tahlil, pragmatik tahlil, statistik tahlil, qiyosiy-tipologik, konseptual-semantik tahlil usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tabu hodisasining tavsifi antropotsentrik, kognitiv, pragmatik, sotsiolingvistik va diskursiv yondashuvlar asosida umumlashtirilib, evfemizm va disfemizm kabi unga yondosh tushunchalar asosida izohlanib, hodisaning semantik, pragmatik, kognitiv hamda sotsiolingvistik mohiyati ingliz va o‘zbek tillari misolida ochib berilgan.

ingliz va o‘zbek tillarida tabu hodisasi struktur-semantik yondashuv asosida yoritilgan, ularga xos leksik-semantik va pragmatik xususiyatlar aniqlangan, badiiy matnlarda tabu so‘zlar va ularni almashtiruvchi evfemizmlar qo‘llanishi dalillangan;

ingliz va o'zbek tillari misolida tabu hodisasining stilistik xususiyatlarini yoritish orqali uning ijtimoiy, pragmatik va diskursiv kabi kommunikativ funksiyalari qiyoslangan, chog'ishtirilayotgan tillarda tabuning taqiqlangan yoki cheklangan ma'nolarni ifodalashi, bu ma'nolarning nutqda evfemistik, baholovchi va pragmatik vositalar orqali moslashtirilishi hamda diskurs va madaniy kontekst asosida tartibga solinishi kabi funksional-semantik jihatlari aniqlangan;

gender nuqtayi nazaridan tabuning qo'llanishi va uning ijtimoiy munosabatlarni ifodalashdagi o'rni, jins va ijtimoiy rollar voqelanishidagi funksiyasi, ularning o'zgarishi, turli madaniy kontekstlarga moslashuvi isbotlanib, o'zbek va ingliz tillarida tabu so'zlarning o'rnini bosuvchi evfemizmlar tizimi hamda tabuning nutq madaniyatidagi ahamiyatini ko'rsatish orqali uning antropotsentrik paradigma doirasidagi nutqiy maqomi mavjudligi ochib berilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

tabu tushunchasi lingvistik kategoriya sifatida qadimgi davrlardan beri mavjud bo'lib, uning tilshunoslikda o'rganilishi turli yondashuvlar orqali shakllangani aniqlangan;

ingliz va o'zbek tillaridagi tabu so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari, ularning ijtimoiy, madaniy kontekstdagi o'rni misollar asosida tahlil qilinib, o'zaro bir xillik hamda farqlarga tayanuvchi qiyosiy tavsif berilgan;

ingliz va o'zbek tillaridagi tabu so'zlar morfologik, sintaktik hamda pragmatik jihatdan o'rganilib, ularning ijtimoiy munosabatlardagi roli asoslangan;

ingliz va o'zbek tillarida tabu so'zlarning ishlatilishida mavjud o'xshashlik hamda farqlar tahlil qilinib, turli ijtimoiy guruhlar, gender va kasbiy muhitda ularning qo'llanish qonuniyatlari ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiyada qo'llanilgan ilmiy yondashuvlar va metodlarning asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning ishonchli manbalarga tayanganligi, tadqiqot natijalarining mavjud lingvistik konsepsiyalar bilan uyg'unligi, tahlil qilingan materiallarning ilmiy metodlar asosida tekshirilgani hamda olingan nazariy qarash va xulosalarning amaliyotda qo'llanish imkoniyati bilan tasdiqlanadi. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari tegishli ilmiy hamjamiyat tomonidan tan olingan bo'lib, u lingvistik tadqiqotlarning zamonaviy yo'nalishlariga mos keladi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda ingliz va o'zbek tillaridagi tabu so'zlarning ijtimoiy-lingvistik xususiyatlari chuqur tadqiq qilingan, tabu fenomenining jamiyatdagi roli, uning til tizimidagi ifodalanishi hamda lingvistik va ijtimoiy-madaniy jihatlari ishlatilish dinamikasi, ularning semantik va pragmatik o'zgarishlari ilmiy asoslangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tabu so'zlarning lingvistik tadqiqotlarda, til va madaniyat o'rtasidagi aloqadorlikni o'rganishda, tarjima amaliyotida, ijtimoiy muhitda qanday qabul qilinishi hamda ishlatilishi bo'yicha tilshunoslikka oid darsliklar, o'quv qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz va o'zbek tillarida tabu so'zlarning ijtimoiy-lingvistik tahlili va tadqiqi bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

tabu hodisasining tavsifi antropotsentrik, kognitiv, pragmatik, sotsiolingvistik va diskursiv yondashuvlar asosida umumlashtirilib, evfemizm va disfemizm kabi unga yondosh tushunchalar asosida izohlanib, hodisaning semantik, pragmatik, kognitiv hamda sotsiolingvistik mohiyati ingliz va o‘zbek tillari misolida ochib berilgani haqidagi ilmiy qarashlaridan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2021-2023-yillarda bajarilgan “Qoraqalpoq folklorida olamning etnolingvistik tasviri” mavzuidagi fundamental tadqiqot loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2025-yil 28-oktabrdagi 652/1-son ma‘lumotnomasi). Tadqiqot natijalarini amaliy qo‘llash fundamental loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida tabu hodisasi struktur-semantik yondashuv asosida yoritilgan, ularga xos leksik-semantik va pragmatik xususiyatlar aniqlangan, badiiy matnlarda tabu so‘zlar va ularni almashtiruvchi evfemizmlar qo‘llanishi dalillangan yangilik va xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrda 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta‘lim bo‘yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan “English Access Microscholarship Program” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 28-oktabrdagi 3336/02-son ma‘lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasidagi ishlarda ingliz va o‘zbek tillarida tabu so‘zlarning ijtimoiy-lingvistik tahlili hodisasining tavsifi konkretlashtirilishiga erishilgan;

ingliz va o‘zbek tillari misolida tabu hodisasining stilistik xususiyatlarini yoritish orqali uning ijtimoiy, pragmatik va diskursiv kabi kommunikativ funksiyalari qiyoslangan, chog‘ishtirilayotgan tillarda tabuning taqiqlangan yoki cheklangan ma‘nolarni ifodalashi, bu ma‘nolarning nutqda evfemistik, baholovchi va pragmatik vositalar orqali moslashtirilishi hamda diskurs va madaniy kontekst asosida tartibga solinishi kabi funksional-semantik jihatlari aniqlanganligi to‘g‘risidagi xulosalaridan Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus+dasturining 585845-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHT-JP raqamli “Development of the interdisciplinary master program on Computational Linguistics at Central Asian Universities: CLASS” mavzusidagi xalqaro loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 28-oktabrdagi 3337/02-son ma‘lumotnomasi). Tadqiqot natijalarini qo‘llash amaliy loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar to‘plamining ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

gender nuqtayi nazaridan tabuning qo‘llanishini, bu orqali ijtimoiy munosabatlar qanday ifodalanishini, jins va ijtimoiy rollar voqelanishida tabu so‘zlarning o‘rnini aniqlash, ularning o‘zgarishi hamda turli madaniy kontekstlarga moslashuvini, shuningdek, o‘zbek va ingliz tillarida tabu so‘zlarning o‘rnini bosuvchi evfemizmlar tizimini, tabuning nutq madaniyatidagi rolini ko‘rsatish, tabuning antropotsentrik paradigma mezonlari asosidagi nutqiy maqomi belgilashga doir ilmiy yangilik va xulosalardan 2025-yil 10-noyabr kuni

“Samarqand viloyati teleradiokanali” DMning FM 105.2 “Samarqand” radiokanalida efirga uzatilgan “Kun mavzusi” eshittirishi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Samarqand viloyati teleradiokanalining 2025-yil 11-noyabrdagi 01-07/375-son ma’lumotnomasi). Natijada, fikrlar umumlashtirilib, nazariy xulosalar chiqarilgan. Tinglovchilar gender omili tabu tushunchasining jamiyatdagi ahamiyati haqida batafsil ma’lumot oldilar. Gender nuqtayi nazaridan tabu qo‘llanishining ilmiy mohiyati ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 2 ta xorijiy, 4 ta respublika jurnallarida nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 160 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Tabu va uning umumnazariy tavsifi: lingvistik tahlil, asosiy tushuncha va ijtimoiy mohiyat**” deb nomlangan. Bu bobda tabu tushunchasi va uning ijtimoiy-lingvistik xususiyatlari, tabuning ijtimoiy birlik sifatidagi tadqiqi va uning lisiniy voqelanishi tavsifi, shuningdek, tabuning til va nutq hodisasi sifatida namoyon bo‘lishi tadqiqi va tavsifi xususida ma’lumot keltirilgan.

Birinchi bobning (1.1.) birinchi paragrafi “**Tabu tushunchasi va uning ijtimoiy-lingvistik xususiyatlari**” deb nomlangan. Bunda *tabu* tushunchasi turli madaniyatlar va jamiyatlarda chuqur ildiz otgani, uning kelib chiqishi antropologik, sotsiologik, psixologik va lingvistik jihatdan keng o‘rganilganiga e’tibor qaratilgan. “Tabu” so‘zi Tinch okeani janubidagi Polineziya xalqlari, to‘nga tilidan olingan bo‘lib, “muqaddas”, “teginilmas”, “man qilingan” ma’nolarini anglatadi<sup>7</sup>. “Tabu” atamasi birinchi marta XVIII asrda, Polineziya qabilaviy jamoalarining hayotini o‘rganish jarayonida, mashhur dengiz sayohatchisi va tadqiqotchi kapitan Jeyms Kuk tomonidan iste’molga kiritilgan bo‘lib, u o‘sha davrdagi ma’lum bir qabilalarning o‘zaro munosabatlarida va madaniy an’analarida mavjud bo‘lgan cheklovlarni ifodalashda ishlatilgan<sup>8</sup>. Tabiiyki,

<sup>7</sup> Bu haqda qarang: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tabu>

<sup>8</sup> Голованова Е.Ю. Эвфемизация табуированных соматизмов (на материале французского и русского языков). – Уфа, 2005. – 158 с.

hozirgi kunda bu atama ko‘plab xalqlarda madaniy, diniy va ijtimoiy kontekstlarda mavjud bo‘lib, uni o‘rganish insoniyatning qadimiy ijtimoiy tartiblari va dinlari bilan bog‘liq.

Tabuning insoniyat tarixida qachon vujudga kelgani haqidagi aniq fikr va tasavvurlar fan taraqqiyotining bugungi davrigacha umumlashtirilmagan. Ammo ba‘zi adabiyotlarda, xususan, turkcha izohli lug‘atda muqaddas hisoblangan ba‘zi insonlar, hayvonlar, narsalar nomini aytish, ularga yaqinlashish taqiqlangan, aks holda zararli oqibatlarga olib keladi deb tushuniladigan diniy ishonch, taqiq ko‘rinishida himoyalovchi narsa, so‘z, munosabat tabu deb qayd etilgan.

A.Omonturdiyev tabuning etnogenezisini, ya‘ni qayerda, qachon paydo bo‘lganligi, qaysi urug‘, qabila yoki xalqning udumi ekanligini aytib berish amri mahol, deb izohlagan. Zotan, u ijtimoiy, tarixiy etnografik hodisa bo‘lib, til va tafakkur kabi qadimiydir. Uning ildizlari ibtidoiy ongning, yaxshilik va yomonlik tushunchalarining paydo bo‘lishi, borliqning ilohiylashtirilishi (fetishizm), ruh tushunchasining paydo bo‘lishi (animizm), ko‘chib yurishi (reinkarnatsiya – tanosux), hayvonlarga sig‘inish (animalizm) yoki, umuman, totemik, mifologik tasavvurlarga borib taqalishi kabi jarayonlarini keng yoritib bergan.

Psixanalitik Z.Freyd ham *tabu* tushunchasiga alohida e‘tibor qaratib, uni inson ruhiy dunyosidagi eng qadimgi hissiyotlar va instinktlar bilan bog‘ladi. U “Totem va Tabu” asarida tabuning odamzot tarixidagi qadimgi jamiyatlarda paydo bo‘lgan “totemizm” bilan aloqadorligini ta‘kidlaydi.

E.Dyurkgeym “tabu” tushunchasini jamiyat tomonidan taqiqlangan, qattiq nazorat ostidagi xatti-harakatlar, e‘tiqodlar yoki narsalar deb ta‘kidlagan. Uning fikriga ko‘ra, tabu odatiy yoki oddiy qoidalar emas, balki ularning buzilishi ijtimoiy munosabatlarning buzilishiga olib keladigan qattiq qoidalar turidir. F.Boas madaniyatning turli jihatlarini o‘rganib, xalq an‘analari, e‘tiqodlari, urf-odatlar va tabular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikka e‘tibor qaratgan. Tabu – bu etnografik tushuncha bo‘lib, tilga ham tegishli. Til vositalari orqali paydo bo‘lgan lingvistik tabu faqat tushuncha va ma‘noni taqiqlovchi chegara emas, balki o‘sha tushunchaning tildagi nomlanishiga, ya‘ni so‘zga qo‘yilgan taqiqlar ma‘nosini anglatadi.

R.Yakobsonning “tabu” tushunchasi tilshunoslikda muhim mavzulardan biri hisoblanishiga doir qarashlari ham yuqoridagi ma‘lumotlarni yanada mustahkamlaydi. Lisoniy yondashuvda tabu tushunchasini nafaqat so‘zlarga bog‘liq, balki ma‘lum ma‘nolarning o‘zgarishi va kuchini ham taqozo etishini ham alohida ta‘kidlamoq lozim. V.f on Gumboldt tabuni insonlarning fikrlaridagi cheklovlar, urf-odatlar va madaniy qoidalar bilan bog‘liq deb hisoblash bilan birga, ularni insoniyatning rivojlanishida muhim rol o‘ynovchi omil sifatida baholagan.

E.Sepir etnolingvistik yondashuv asosida “tabu” tushunchasini tadqiq etgan. E.Sepir fikriga ko‘ra, tabu – bu insonlar jamiyatidagi ma‘lum ijtimoiy va madaniy taqiqlar bo‘lib, ularning asosiy vazifasi, odatda, ma‘lum ijtimoiy me‘yorlarni saqlashga yordam berishdir. Etnolingvist N.I.Tolstoy qadimgi slavyan xalqlari madaniyati, diniy e‘tiqodlari va marosimlarini tadqiq qilgan va “tabu” tushunchasini ana shu e‘tiqodlar va urf-odatlar bilan bog‘liqlikda tavsiflagan.

Umuman olganda, tabu tushunchasi qadimdan jamiyat hayotining turli jabhalarida uchrab, har bir madaniyatda o‘ziga xos mazmun va ahamiyat kasb

etganligi turli ma'lumotlar bilan tavsiflangan. Shuningdek, turli madaniy manbalarga asosan, bu fenomen ijtimoiy tuzumni tartibga solish, diniy e'tiqodlarni mustahkamlash, axloqiy qadriyatlarni himoya qilishga qaratilgan murakkab mexanizm sifatida talqin qilingan. Shu bois tabu tushunchasi har bir mintaqada o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uning ijtimoiy va diniy ildizlari turli ilmiy manbalar orqali asoslangan holda tadqiq qilingan.

Birinchi bobning (1.2) ikkinchi paragrafi **“Tabuning ijtimoiy birlik sifatidagi tadqiqi va uning lisoniy voqelanishi tavsifi”** deb nomlangan. Tabu – o'zaro aloqalar va munosabatlar asosida shakllangan ijtimoiy birlikdir. Ijtimoiy birlik – bu bir yoki bir necha shaxslar o'rtasida o'zaro aloqalar, hissiyotlar va manfaatlar asosida paydo bo'lgan, doimiy yoki vaqtinchalik guruh. Bu birliklar o'zaro bog'lanish, hamkorlik va umumiy maqsadlar uchun birlashish orqali shakllanadi. Ijtimoiy birliklar jamiyatda ijtimoiy tuzilma, madaniyat va an'analarni yaratishda muhim rol o'ynaydi. Ular ko'pincha o'zaro yordam, qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy ko'mak orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Qayd etilishicha, har bir davrda yangi ehtiyojlar, muammolar va texnologiyalar tabular va ijtimoiy birliklarning o'ziga xos xususiyatlarini shakllantirgan. Ularning roli va ahamiyati zamon bilan birga o'zgarib, yangi shakllarni qabul qilib boradi. Xususan, hozirgi toifadagi odam (homo sapiens) bundan taxminan 40-50 ming yil muqaddam vujudga kelgach, ijtimoiy hayot asta-sekin shakllana borgan. Ijtimoiy hayotni qaror toptirish odam ruhiy olamidagi hayvoniy his-tuyg'ularini barqaror qilish ehtiyoji zaminida har bir mintaqada o'ziga xos madaniyat, ma'naviyat vujudga kela boshlagan. Ma'naviyatni qaror toptirishning dastlabki shakli tabu muayyan xatti-harakatlar va narsalarga tegish, iste'mol qilishni taqiqlash sifatida vujudga kelgan. Masalan, uning yordamida qarilarni, xotin va bolalarni so'yib yeyish (kannibalizm) taqiqlangani, bunday yo'l tutgan odamlarga nisbatan jamoatchilik nafrati qo'zg'atilib, jazolangani, urug'dan chiqarib yuborilgani juda katta mohiyatga egaligi bilan tarbiyaviy ahamiyat kasb etgan. Buning o'rniga keksalar urug' faoliyatini chorvachilikka yo'naltirganlar va ma'naviy-axloqiy jarayonni sog'lomlashtirishga e'tibor qaratganlar. Tabuni buzuvchilarga oliy jazo berilgan yoki jamoa (urug', qabila)dan haydab yuborilgan. Bu voqelik ilohiy kitoblarda ham aks ettirilgan. Masalan, “Avesto”da Iyim man etilganligiga qaramay, qora mol go'shtini, “Qur'on”da Odam Ato va Momo Havo bug'doyni, “Injil”da Adam va Yeva “Donishmandlik daraxti”ning mevasi (olma yoki anjir)ni yeganliklari uchun Allohning g'azabiga uchraganlar va behishtdan haydalib, yerga turli jazolarga giriftor etilish uchun jo'natilganlar.

Yoki o'sha davr shariati tomonidan man etilganligiga qaramay, o'z tug'ishgan jufti – singlisi bo'lgan Iqlimani xotinlikka olish uchun talashib ukasi Qobil Hobil (Iqlima Hobil bilan egizak emas)ni o'ldirganligi uchun Qobilni yer yutganligi qon-qarindoshlik (urug') ichidagi nikoh (endogamiya) man etilganligining ko'rinishlari bo'lib, bu haqida batafsil ma'lumotlar yozma adabiyotlarda ham aks etgan.

V.Ternerning fikriga ko'ra, tabular jamiyatning ichki tartibini mustahkamlash uchun zarurdir. Ritual (diniy marosim) jarayonlar davomida taqiqlar va tabular muhim rol o'ynaydi, chunki ular yangi vaziyat va tuzilmalarga moslashish jarayonini osonlashtiradi. Masalan, marosimda taqiqlangan narsalarga rioya qilish orqali odamlar o'ziga xos ruhiy va jismoniy poklanish jarayonidan o'tadi, bu esa

ularning yangi ijtimoiy mavqega ega bo'lishi uchun tayyorgarlik vazifasini bajaradi.

M.Sharifxo'jayev ijtimoiy hayotda tabu va odob qoidalarining o'rni haqida yozgan va ularni turli mintaqalar misolida tahlil qilgan. M.Sharifxo'jayev o'zbek jamiyatidagi turli taqiqlar (tabular) va odob-axloq qoidalarining ijtimoiy hamjihatlikdagi o'rnini batafsil tahlil qilgan. U, ayniqsa, ijtimoiy hayotda jamiyatni tartibga soluvchi vosita sifatida tabularning ahamiyatini alohida qayd etadi. Antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlar sohasida faoliyat yuritgan H.Rahmonovning asarlarida ijtimoiy hayotdagi axloqiy me'yorlar, tabular va ularning jamiyatdagi ahamiyati haqida chuqur tahlil keltiriladi. U "Tabu, yoki qadriyatlar tizimidagi ijtimoiy cheklovlar" nomli asarida tabularni ijtimoiy birlik sifatida o'rganadi va ularning qadriyatlar tizimidagi o'rnini tahlil qiladi.

Amur Temur davrida ham jamiyat hayotini boshqaruvchi an'ana va qoidalar ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Ayniqsa, tabular, ya'ni an'ana va odatlarning bajarilishi, bu davrdagi ijtimoiy tartibning asosiy unsurlaridan biri bo'lgan. Amur Temur o'z davlatining barqarorligi va kuchayishini ta'minlash maqsadida qat'iy tartib-qoidalarni belgilagan. Ushbu qoidalar, ayniqsa, harbiy va fuqarolik sohalarida aniq ijtimoiy normalarni joriy etgan. Marsel Brionning "Menkim, sohibqiron – jahongir Temur" nomli asarida Amir Temur davridagi oilaviy tabular oila va jamiyatda barqarorlik, hurmat va hamjihatlikni saqlashga yordam beruvchi muhim ijtimoiy nazorat vositalaridan biri bo'lganligi asoslangan.

Diniy e'tiqodlarning ilk shakllaridan biri – totemizm. Boshqacha aytganda, hayvon va o'simliklar inson himoyachisi, najotkori deb hisoblanib, ularga sig'inilgan, ularni ovlash, o'ldirish, go'shtini yeyish man qilingan. M.Duglas ta'biricha, ayrim madaniyatlarda tabu o'zining aniq ifodalari bilan totemizm bilan chambarchas bog'liqligi kuzatiladi. Bu, asosan, incest tabuni, ya'ni egzogamiyani, yoki totem hayvonini o'ldirishni taqiqlashni anglatadi. Hozirgi kunda tabu zamonaviy jamiyatlarda ham mavjud bo'lib, ular aynan shu funksiyalarni bajaradi.

Birinchi bobning (1.3) uchinchi paragrafi "**Tabuning til va nutq hodisasi sifatida namoyon bo'lishi tadqiqi va tavsifi xususida**" deb nomlangan. Jamiyatning madaniy, lisoniy, diniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishi davomida turli odat va qoidalar tizimli shakllangan bo'lib, ular insonlar orasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim omillardan biri maqomini egallagan. Ushbu qoidalar orasida "tabu" tushunchasi alohida o'rin tutadi. Tabu – ma'lum bir jamiyatga xos axloqiy-ijtimoiy me'yorlarni tartibga soluvchi taqiqlar jamlanmasidir.

Demak, tabu so'zlar jamiyatda turli sabablarga ko'ra nutqda ishlatishga tavsiya etilmaydigan so'z va iboralardir, deb bejizga aytilmagan. Ushbu tushuncha o'zida diniy, madaniy-ma'naviy, psixologik va lingvistik cheklovlarni aks ettiradi va ko'plab qadimiy madaniyatlarda tabular muqaddas deb hisoblangan.

Tabu tilshunoslikda til va muloqotda ma'lum so'zlar yoki atamalarning taqiqlanishi tilning dinamikasiga qanday ta'sir qilishi haqida ma'lumot beradi. Tilshunoslar o'zgacha ahamiyatga ega bo'lgan atamalarni aniqlab, ularning til va madaniyatdagi o'rnini tahlil qiladi. Tabu so'zlar – bu lingvistik yondashuvda ham

turli sabablar tufayli qo'llanishi taqiqlangan so'zlar bo'lib, ular ko'pincha baxtsizlik keltirishi mumkin bo'lgan yoki odobsizlik sifatida baholangan so'zlar hisoblanishini qayd etiladi. So'nggi vaqtlarda jahon tilshunosligida olimlar nutqning ijodiy kuchining tadqiqiga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Nutq madaniyati, ortologiya, neyrotilshunoslik, amaliy tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, paralingvistika kabi sohalariga qiziqish kun sayin ortib borayotgani fikrimiz dalilidir. Tabu so'zlar tilning turli sathlarida namoyon bo'lishi mumkin va ularning ta'siri har bir sathda alohida tarzda namoyon bo'ladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ingliz va o'zbek tillaridagi tabu so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari”** deb nomlangan bo'lib, bobda ingliz tilidagi tabu so'zlar va ularning leksik xususiyatlari, o'zbek tilidagi tabu so'zlar va ularning leksik jihatlarini, ijtimoiy tabularning tilda aks etishi (leksik-semantik o'zgarishlar), ingliz va o'zbek tillarida tabu so'zlarning qiyosiy tahlili masalalari o'rganilgan.

Ikkinchi bobning (2.1) birinchi paragrafi **“Ingliz tilidagi tabu so'zlar va ularning leksik xususiyatlari”** deb nomlangan. Tabu so'zlarning leksik xususiyatlari ularning ma'lum bir kontekstda ishlatilishi, sinonimlarining mavjudligi va evfemizmlar bilan bog'liqligida namoyon bo'ladi. Leksik jihatdan tabu so'zlar odatda salbiy, noxush yoki jamiyatda qabul qilinmaydigan voqeliklarni ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, ingliz tilida “swear words” yoki “curse words” sifatida tanilgan so'zlar ba'zan xafagarchilikni ifodalash yoki hissiy holatni kuchaytirish uchun ishlatiladi, o'zbek tilida esa “so'kinish” yoki “uyatsiz so'zlar” kabi iboralar bu tushunchalarni bildiradi.

Tilshunoslikka oid klassik asarlardan biri bo'lgan Jorj Lakoffning **“Women, fire, and dangerous things”**<sup>9</sup> kitobida metaforalar, tabular va evfemizmlar orqali tilning ijtimoiy-falsafiy funksiyalari o'rganilgan. Shuningdek, Keyt Allan va Keyt Burridjning **“Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language”**<sup>10</sup> nomli asarida tabu va evfemizmlar mavzusidagi keng qamrovli tadqiqotlar keltirilgan. Ushbu asarlar tilning madaniy va ijtimoiy ko'rsatkich sifatidagi o'рни va ahamiyatini ochib beradi.

Ingliz tilshunosligida disfemizm haqida biror jiddiy tadqiqotni uchratish qiyin. Zotan, uning o'rnida sleng tushunchasi va mohiyati keng tahlil etilgan. Bu bilan *sleng* bilan *disfemizm* terminlari o'zaro dublet, tilning ayni bir tushunchasini berardi, degan xulosaga kelmaslik lozim. *Sleng* tushunchasi disfemizm tushunchasiga nisbatan ancha keng<sup>11</sup>. *Sleng*, ko'pincha, norasmiy va xalq tilida ishlatiladigan iboralar to'plami bo'lib, unda ham tabu mavzulari ko'tariladi. Biroq *sleng* disfemizmga qaraganda kengroq qamrovga ega bo'lib, ijtimoiy qatlamlar, yosh guruhlari va submadaniyatlar orasida ma'lum bir kontekstlarda qo'llaniladi. Masalan, *sleng*da tabu mavzusidagi iboralar yumoristik yoki yengilroq uslubda yoritilishi mumkin<sup>12</sup>. I.V.Arnoldning ta'biricha, slengizmlarning asosiy

<sup>9</sup> Lakoff G. Women, fire, and dangerous things: What categories reveal about the mind. – Chicago:University of Chicago Press, 1987. – 614 p.

<sup>10</sup>Allan K., Burridge K. Forbidden Words. Taboo and the Censoring of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007. – 303 p.

<sup>11</sup> Mirtojdiyev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 240 b.

<sup>12</sup> Adams M. Slang: The people's poetry. – Oxford: Oxford University Press. – 256 p.

xususiyatlari ularning qo‘pol, dag‘al, hissiyotli, iltifotsiz va hazilomuz bo‘lishidadir. Bunday so‘zlar, ko‘pincha, jonli va ijtimoiy nuqtayi nazardan ta’sirchan tarzda ishlatiladi<sup>13</sup>.

Bunga ingliz tilida bir qator misollarni keltirish mumkin. Masalan, bular quydagilardir: “Die” (“Passed away”), asl ma’nosi “Die” so‘zi *o‘limni* ifodalovchi to‘g‘ridan to‘g‘ri so‘zdir. Ushbu so‘z evfemizm “Passed away” so‘zi, o‘limni yumshatish va odamlarga qulayroq his qilishni ta’minlash uchun ishlatiladi. Bu o‘limning noxushliklarini yumshatishga qaratilgan leksik semantik o‘zgarishdir. “Blind” (“visually impaired”) asl ma’nosi “blind” so‘zi ko‘rish qobiliyatini yo‘qotgan kishini ifodalaydi. Evfemizm “Visually impaired” so‘zi, *ko‘rish qobiliyati yo‘qligini* ta’riflashda salbiy va stigmatizatsiyalashni oldini olish uchun ishlatiladi. Bu leksik o‘zgarish insonning ahvolini salbiy tusda ifodalashdan saqlanishga xizmat qiladi. “Prison”, “correctional facility” asl ma’nosi “prison” so‘zi jazo jarayonida ishlatiladigan noxush muassasani bildiradi. Evfemizm “correctional facility” so‘zi jinoyatchilarni tuzatish va qayta tarbiyalash maqsadida ishlatiladigan joyni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu jazoni yumshatish va muassasaning haqoratli ko‘rinishini kamaytirish uchun ishlatiladi. “Crazy”, “mentally ill” asl ma’nosi “crazy” so‘zi insonni ruhiy holati yomon yoki normaga mos kelmasligini ifodalaydi. Evfemizm orqali qo‘llanilgan “mentally ill” so‘zi, ruhiy salomatligi buzilgan shaxslarni haqoratlamasdan, ularning holatini nisbatan yumshoqroq ifodalaydi. Bu leksik o‘zgarish, stigma va salbiy tasavvurlardan qochishga xizmat qiladi. “Fat”, “overweight” asl ma’nosi “fat” so‘zi, tananing ortiqcha yog‘lari borligini ko‘rsatadi. Evfemizm “overweight” so‘zi odamni yomonlashning oldini olish va tananing ortiqcha vaznini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu salbiy ifodalashdan qochishga imkon beradi<sup>14</sup>. Tabu so‘zlar esa *hayot va o‘lim, og‘ir kasalliklar* yoki *jismoniy shikastlanishlar* bilan bog‘liq so‘zlardir. Tabu so‘zlarning semantik xususiyatlaridan biri shundaki, ular jamiyatdagi kuchli va nozik qadriyatlarni aks ettiradi. Bunday so‘zlarning ishlatilishi ko‘pincha muayyan kontekstga bog‘liq bo‘lib, ular har bir madaniyatda va jamiyatda o‘zgarishi mumkin. Masalan, bir tilda tabu hisoblanadigan so‘z boshqa tilda umumiy yoki norasmiy so‘z sifatida qabul qilinishi mumkin. Shuning uchun tabu so‘zlarning semantik tahlili til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishda muhim rol o‘ynaydi.

Ikkinchi bobning (2.2) ikkinchi paragrafi **“O‘zbek tilidagi tabu so‘zlar va ularning leksik jihatlari”** deb nomlangan. Ko‘p millatli O‘zbekistonda xalqlarning madaniy, ilmiy va iqtisodiy integratsiyalari tilshunoslar oldiga “til va madaniyat”, “shaxs – til – jamiyat” kabi muammolarni o‘rganish vazifasini qo‘yadi<sup>15</sup>. O‘zbek tilidagi tabu so‘zlar va ularning leksik jihatlari tahlil qilish tilshunoslik va madaniyatshunoslikda dolzarb masalalardan biridir. Tabu so‘zlar til va jamiyatning o‘zaro munosabatini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular nafaqat tilning leksik tarkibini, balki jamiyatning madaniy, axloqiy va ijtimoiy normalarini ham aks ettiradi.

<sup>13</sup> Арнольд И. В. Стилистика современного английского языка. – Л.: Просвещения, 1973. – С.90.

<sup>14</sup> Allan K., Burridj K. Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. – Cambridge University Press, 2006. – P. 124-125.

<sup>15</sup> Омонтурдиев А. Ўзбек нутқининг эвфемик асослари. – Термиз, 2000. – Б.101.

Inson hayotida sodir bo'ladigan barcha jarayonlar, hodisalar va shaxslar bilan bog'liq bo'lgan "birlamchi nom" sifatida ishlatiladigan tabu so'zlarining evfemistik shakllari mavjud. Bu evfemistik ifodalar, aslida, tildagi mavjud nomlarning funksional va semantik sinonimlari sifatida qo'llaniladi. Xususan, o'zbek tilida "tutqich bermas" kabi iboralar keng tarqalgan bo'lib, ular konnotativ o'zgaruvchanligi, shuningdek, yumor va kinoya usullarining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bunday ifodalar tilning ijtimoiy va madaniy kontekstidagi nojo'ya yoki tabu mavzularni yumshatish, yengillashtirishga xizmat qiladi<sup>16</sup>.

A.J.Omonturdiyev ta'kidlashicha, evfemalar (evfemizmlar) qanchalik go'zal, nozik, beozor ma'no ifodalamasin, ular tabu belgilagan tushunchaning mohiyatini xotiradan butunlay yo'q qila olmaydi. Bu holatni M.Mirtojiyev quyidagicha ifodalaydi: "... evfemizm qanchalik yumshatuvchi bo'yoq berishidan qat'i nazar, u meros qilib olingan salbiy belgilardan butunlay xoli bo'la olmaydi. Ushbu salbiy belgi ma'lum darajada o'z-o'zidan saqlanib qoladi va evfemizmi qo'llagan kishi ham, mazmunni ifoda etishda xijolat hissini sezib turadi". Bu holatni N.Ismatullayev tabu so'zlarning evfemizm sifatida qo'llanilishi va ular orqali hosila ma'no yuzaga kelishi bilan izohlaydi. Uning ta'kidlashicha, evfemizmlar so'zlarning leksik ma'nosi va hosila berish qonuniyatlari asosida shakllanadi.

*O'ladi* (o'limi yaqin) denotati o'rnida odatda "umri bitganday", "tugab qolibdi", "bir haftaga ham bormaydi", "vaqti-soati bitibdi", "vaqti yaqin", "to'rt-besh kunligi qolibdi", "yuziga chapgi lahd uribdi", "xuftoniga qolmaydigan ko'rinadi", "ko'zidan nur sonibdi", "ketar bo'libdi", "ketish yaqin qolibdi", "tomoqdan qolibdi", "namozdan qolibdi", "omonat bo'lib qolibdi", "hayotga qaytmaydi" kabi ma'nodosh ifodalari ishlatiladi<sup>17</sup>. Bunday evfemistik ma'nodoshlar, odatda, o'limni bevosita tilga olishdan qochish, jamiyatda ushbu noxush mavzuni yumshatish va hurmat shaklda ifodalash uchun qo'llaniladi. Shuningdek, "yaxshi bo'lmaydi", "odam bo'lmaydi", "sob bo'lgan", "mehmon bo'lib qolibdi", "bir kunlik mehmon", "narigi tomonning sharpasi tushib qolibdi" kabi iboralar orqali ham o'limning noxushligini yumshatishga intiladi. Bu kabi evfemistik ifodalar, jamiyatning madaniy qadriyatlari va axloqiy me'yorlari asosida ishlab chiqilgan va ulardan foydalanish orqali odamlarning o'limga bo'lgan munosabatlarini ehtiyotkorlik bilan tabularni ifodalashga yordam beradi.

Ikkinchi bobning (2.3) uchinchi paragrafi "**Ijtimoiy tabularning tilda aks etishi: leksik-semantik o'zgarishlar**" deb nomlangan. Til jamiyatdagi ijtimoiy qoidalar va taqiqlarni o'zida aks ettiradigan dinamik tizimdir. Faqat bitta madaniyatda tabu boshqa tushunchalar bilan murakkab bog'liqlikka ega bo'lishi mumkin. Masalan, Steiner Polineziya madaniyatidagi "tabu" tushunchasining murakkabligi haqida batafsil to'xtalib o'tadi. Uning qayd etishicha: "*Mana va tabu ko'pincha bir narsaning mustaqil jihatlari edi*". "Mana" – bu ayrim shaxslarni boshqalardan ajratib turadigan kuch bo'lib, bu shaxslarning o'z "tabular"ini belgilash qobiliyati mavjudligi sababli ularga nisbatan lingvistik ifodalarda maxsus so'zlashuv shakllari yoki semantik cheklovlar qo'llaniladi<sup>18</sup>.

<sup>16</sup> Qodirova X. O'zbek tilida evfemizm va disfemizm. O'quv qo'llanma: to'ldirilgan qayta nashr / Globe Edit, 2022. – B.17.

<sup>17</sup> Qarang: Omonturdiyev A J. Professional nutq evfemikasi. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 35.

<sup>18</sup> Mack M. The anthropologist as the 'primitive': franz steiner's taboo. – Jaso 27/3, 1996. –P.15.

Darhaqiqat, ijtimoiy tabular jamiyatdagi noqulay yoki nomaqbul deb hisoblangan mavzularni qamrab oladi va bu mavzular til darajasida senzura vositasida boshqariladi. O‘z nutqini nazorat qilmaydigan yoki o‘ylamay gapiradigan shaxslarning ruhiy jihatdan beqaror deb baholanishi, ko‘pincha, jamiyat tomonidan qabul qilingan lingvistik normalar va tabularni buzish bilan bog‘liq holat sodir bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilida: “Men biroz charchadim” (aslida “holdan toyibman” degan mazmuni yumshatish uchun), “u unchalik yaxshi odam emas edi” (aslida “yomon odam edi” degan ma’noni yumshoq shaklda ifodalash uchun), “o‘zimni unchalik yaxshi his qilmayapman” (“o‘zimni yomon his qilyapman” ma’nosini bilvosita yetkazish uchun). Masalan, ingliz tilida: “I’m not feeling particularly great” (instead of “I feel terrible”), “she wasn’t very kind” (instead of “She was rude”), “they didn’t live very long” (instead of “They died young”). Bu usul ikki tilda ham ijtimoiy qabul qilinadi va mazmuni yumshoqroq tarzda yetkazish uchun ishlatiladi.

Ijtimoiy tabular til tizimida turli qiyosiy o‘xshatish va metaforalar orqali aks etadi. Bu vositalar, ayniqsa, noqulay yoki og‘ir mazmunlarni yumshoqroq va obrazli shaklda yetkazishda samarali bo‘ladi. Ma’lum ijtimoiy yoki shaxsiy tajribalarni bevosita aytib o‘tish o‘rniga, bunday metaforik ifodalar tabularni chetlab o‘tish va mazmuni bilvosita yetkazish imkonini beradi<sup>19</sup>.

Masalan, o‘zbek tilida: “*Hayotim go‘yo bo‘ronli dengizdek edi*” – hayotdagi qiyin va murakkab davrlarni bo‘ronli dengiz bilan qiyoslash orqali yumshoq ifodalash, “*o‘sha qimmat restoran xuddi osmondagi oydek yetib bo‘lmas edi*” – oddiy ishchining moliyaviy qiyinchiliklari yuqori narxlar orqali ramzlashgan. Masalan, ingliz tilida: “*He felt like a fish out of water*” – odam o‘zini tanish bo‘lmagan va noqulay muhitda his qilishi, “*It was like pulling teeth*” – juda qiyin yoki noqulay vaziyatni tasvirlash uchun ishlatiladi. Bunday leksik-semantik o‘zgarishlar tilda tabularni yumshoqroq shaklda aks ettirish imkonini beradi. Ular orqali til nafaqat ijtimoiy me‘yorlarni ifoda etadi, balki insonning ichki hissiyotlarini ham estetik tarzda ifodalashga xizmat qiladi.

Ikkinchi bobning (2.4) to‘rtinchi paragrafi “**Ingliz va o‘zbek tillarida tabu so‘zlarning qiyosiy tahlili**” deb nomlangan. Tabu so‘zlarni ikki tilda qiyosiy tahlil orqali o‘rganadigan bo‘lsak, ularning semantik va pragmatik jihatlari har xil namoyon bo‘lishini kuzatish mumkin. Ularning qiyosiy tahlili lingvistik, madaniy va ijtimoiy omillarni chuqur o‘rganishni talab qiladi. Har bir til o‘ziga xos semantik tizimi va pragmatik xususiyatlariga ega bo‘lib, bu so‘zlarning qo‘llanilishi jamiyatdagi axloqiy va madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq. Xususan, ingliz va o‘zbek tillarida tabu so‘zlar shakllanishi, ishlatilishi va evfemizatsiya jarayonida sezilarli farqlar mavjud. Ingliz tilida tabu so‘zlar *jinsiy, diniy va irqiy* mavzularga ko‘proq bog‘liq bo‘lsa, o‘zbek tilida bunday cheklovlar *odob-axloq, hurmat va ijtimoiy maqomga* nisbatan kuchliroqligi kuzatiladi.

Tabu – bu turli sabablarga ko‘ra qo‘llanilishi cheklangan yoki taqiqlangan so‘zlar bo‘lib, ular ba‘zan baxtsizlik keltirishi mumkin deb, ba‘zan esa odobsizlikka oid yoki nomaqbul deb hisoblanadi. Odatda, *kasallik nomlari, ba‘zi (yovuz) ilohlar yoki hayvonlarning nomlari, odobsiz so‘zlar, o‘limga oid iboralar*

---

<sup>19</sup> Попова Я.В. Коммуникативная обработка табуированных речесмыслов в институциональном дискурсе. Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Красноярск, 2014. – С. 57.

va shu kabi tushunchalar jamiyatda tabu sifatida qabul qilinadi. Shunga binoan maxsus maqsadlar uchun tabu qilingan leksikani o'z ichiga olgan lug'atlar ham tuziladi. Masalan, kriminalistlar tomonidan qo'llaniladigan jinoiy jargon (o'g'rilar tili) lug'atlari shunday maxsus lug'atlarga misol bo'la oladi<sup>20</sup>.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**tabu so'zlar ishlatilishining sotsiologik jihatlarini**" deb nomlangan. Bobda o'zbek va ingliz jamiyatida tabu so'zlarning qo'llanishi: o'xshashlik va farqlar, oila, jamiyat va ish muhitida tabu so'zlar, tabu so'zlarning qo'llanishida gender tushunchasining o'rni xususidagi masalalar tadqiq qilingan.

Uchinchi bobning (3.1) birinchi paragrafi "**O'zbek va ingliz jamiyatida tabu so'zlarning qo'llanishi: o'xshashlik va farqlar**" tadqiqiga bag'ishlangan. O'zbek va ingliz jamiyatlarida tabu so'zlarni ishlatish ham, aynan, shu maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lib, ularning qo'llanilishida milliy mentalitet va madaniy xususiyatlar o'z aksini topadi.

Evfemizatsiya – tabu qilingan tushunchalarni yumshoqroq yoki maqbulroq shaklda ifodalash. Masalan, o'zbek jamiyatida "*yoshi ulug'*" iborasi insonning *qarilik davriga yetganini bevosita aytmaslik uchun ishlatiladi*, ingliz tilida esa "*senior citizen*" yoki "*golden age*" kabi iboralar qo'llaniladi. Berilgan ma'lumotlarga ko'ra, jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy me'yorlar natijasida shakllangan evfemizmlar odob-axloq qoidalariga rioya qilish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash hamda diniy motivlarga asoslangan axloqiy me'yorlarni saqlashga xizmat qiluvchi muhim kommunikativ vosita hisoblanadi. Ayniqsa, qo'rqinchli, uyatli yoki nafrat uyg'otuvchi tushunchalarni yumshoqroq shaklda ifodalash orqali jamiyatdagi muvozanat va muloqot madaniyatini saqlashga yordam beradi<sup>21</sup>. Bundan tashqari, evfemizmlarga madaniyatsiz yoki nomaqbul so'zlarni diplomatik nuqtayi nazardan yanada madaniyroq shaklda ifodalash, nutqiy niqoblash, shuningdek, ma'lum darajada noaniqlik yoki umumiylik kasb etuvchi iboralar bilan almashtirish vositasi sifatida ham qaraladi<sup>22</sup>. Bu kabi umumiylik kasb etuvchi iboralar bilan almashtirish orqali evfemizmlar jamiyatdagi ijtimoiy muvofiqlikni ta'minlash va noqulay mavzular atrofida nizolar yuzaga kelishini oldini olishga xizmat qiladi.

Tabu qilingan nutq ma'nolarini kommunikativ qayta ishlashning navbatdagi usuli sifatida *kriptolaliyani* keltirish mumkin. Ushbu atama ostida "tilning nominativ vositalari va usullaridan maxfiy yoki kriptoformal funksiyada foydalanish" tushuniladi<sup>23</sup>. **Kriptolaliya** – maxsus kodlangan yoki yashirin ifodalar yordamida muloqot qilish. O'zbek tilida ma'lum axloqiy yoki diniy sabablarga ko'ra bevosita aytilishi noqulay bo'lgan so'zlar turli metaforik iboralar bilan almashtiriladi, ingliz tilida esa ushbu amaliyot jargoni yoki "sleng" shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Jamiyatda ma'lum tushunchalarni yashirish yoki

<sup>20</sup> Рождественский Ю.В., Блинов А. В. Введение в языкознание: Учеб. пособие для студ. филол. фак. высш. учеб. заведений. – М.: Академия, 2005. – С.137.

<sup>21</sup> Кацев А.М. Эвфемистический потенциал и его реализация в речи // Некоторые проблемы слова и предложения в современном английском языке. – Горький: ГГПИ, 1976. – С. 19-35.

<sup>22</sup> Сахно О.С. Эвфемистический потенциал фразового наименования в русском языке // Известия высших учебных заведений. Северо - Кавказский регион. Сер. Общественные науки. – Ростов н / Д: ЮФУ, 2006. – С. 49-53.

<sup>23</sup> Москвин В.П. Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка. – 4-е изд. – М.: Ленанд, 2010. – С.75.

yumshatish zaruriyati tug‘ilganda, **kriptolaliya** va **tabu** birgalikda ishlaydi. **Tabu** – bu jamiyat tomonidan ochiq aytilishi nomaqbul sanalgan tushunchalar bo‘lsa, **kriptolaliya** esa ularni yashirin yoki kodlangan shaklda ifodalash usulidir. Ekologik o‘zgarishlar misolida bu hodisani yaqqol kuzatish mumkin. Tabiat muammolari haqida so‘z ketganda, ba’zi iboralar keskin jarayonlarni yashirish yoki yumshatish uchun kodlangan shaklda ifodalanadi.

Ingliz tilida global ekologik muammolarni ifodalashda muayyan terminlar murakkab yoki tushunarsiz shaklga ega bo‘lib, ularning bevosita ma’nosi yashirin qoladi. Masalan, “*climate change*” (iqlim o‘zgarishi) atamasi aslida jiddiy ekologik inqirozni bildirishi mumkin bo‘lsa-da, u “*global warming*” (global isish), “*natural disasters*” (tabiiy ofatlar) kabi aniqroq terminlarning o‘rnini bosuvchi, yumshatilgan va mavhum tushunchaga ega.

**Ritualizatsiya** – tabu qilingan mavzularni an’anaviy yoki rasmiy shaklda ifodalash. O‘zbek jamiyatida hurmat va odob qoidalariga rioya qilish muhim bo‘lgani sababli, masalan, jinsiy hayot yoki o‘lim kabi mavzular ko‘proq diniy yoki rasmiy nutqlarda muhokama qilinadi. Ingliz jamiyatida esa bunday mavzularni ilmiy va huquqiy diskurs orqali ifodalash odatiy hol hisoblanadi.

Ritualizatsiya va tabu bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalardir. Tabu – muhokama qilinishi nomaqbul yoki man etilgan mavzularni belgilovchi ijtimoiy cheklov bo‘lsa, ritualizatsiya bu mavzularda muloqot qilish jarayonida qo‘llaniladigan “tayyor namunalar” va andozaviy iboralardan foydalanishni anglatadi: “Ayniqsa, nozik” va tabu sanalgan mavzularda ishtirokchilar o‘z fikrlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri ifoda etishdan qochib, umumiy qabul qilingan fikrlar va klishelarga tayanadi. Bu jarayon jonli muloqotni rasmiy rituallarga aylantiradi va so‘zlovchi ham, tinglovchi ham samimiy muloqot imkoniyatidan mahrum bo‘ladi. Tinglovchi haqiqatga yaqin bo‘lgan dalillar o‘rniga standartlashtirilgan va ko‘pincha manipulyativ ifodalarning guvohi bo‘lib qoladi”<sup>24</sup>. Shunday qilib, tabu va ritualizatsiya jamiyatda muhim mavzularni yashirish va ularni “rasmiy” darajada muhokama qilish orqali ijtimoiy munosabatlarga ta’sir o‘tkazadi.

“**O‘ziga tushuntirishga ruxsat berish**” **kommunikativ usuli** – muloqot jarayonida tabu qilingan tushunchalarni bilvosita, noaniq tarzda yetkazish. Masalan, ingliz tilida “*adult content*” iborasi bevosita *jinsiy mavzular haqida gap ketayotganini* anglatadi, o‘zbek jamiyatida esa “*bu mavzu nozik*” yoki “*bu yerda gapirish noqulay*” kabi iboralar bilan izohlanishi mumkin.

Shunday qilib, ingliz va o‘zbek jamiyatida tasvirlangan kommunikativ ishlov berish usullari va uslublari bir-biri bilan o‘zaro bog‘lanib yoki bir-biriga zid kelib, tabu qilingan nutq ma’nolarini ifodalash uchun tabulashtirilgan tarzda uchraydi va kommunikativ cheklovlar mavjudligini hamda tabu qilingan denotatni saqlash niyatini ko‘rsatadi. Bunday ekspilikatsiyaning intensionsiyalari turlicha bo‘lishi mumkin: etiket va odob-axloq qoidalariga rioya qilish, tabu qilingan nutq ma’nosini yashirincha yetkazish orqali muloqotdagi sherikni xafa qilmaslik yoki manipulyatsiya qilish, ishora, kinoya yaratish, ma’lumotni yashirish, dezinformatsiya va hokazolar shular jumlasiga kiradi.

Uchinchi bobning (3.2) ikkinchi paragrafi “**Oila, jamiyat va ish muhitida tabu so‘zlar**” qo‘llanishi tadqiqiga bag‘ishlangan. Har bir muhitda tabu so‘zlar

<sup>24</sup> Лазуткина Е.М. Парламентские жанры // Культура парламентской речи. – М.: Наука, 1994. – С. 39.

jamiyatning madaniyati, qadriyatlari va ijtimoiy normalarini aks ettiradi. Shu bois tabu soʻzlarning mazmunini tushunish va ularga rioya qilish insonning ijtimoiy muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biridir.

V.Malinovskiyning **“Sehr, ilm va din”** nomli asarida ta’kidlanilishicha, axloqiy me’yorlarning mohiyati, huquqiy yoki odat tusiga kirgan qoidalardan farqli o’laroq, ularning inson vijdoni orqali nazorat qilinishidir. Bu ruhiy holat jamiyatning ta’siri bilan shakllanadi, chunki an’analar va urf-odatlar ma’lum taqiqlarni jirkanch va qo’rqinchli sifatida belgilaydi. Shu bilan birga, bu his-tuyg’u insonning ichki ongi va shaxsiy tajribasi orqali namoyon bo’ladi. Shuning uchun bu jarayon nafaqat jamiyatning, balki shaxsning o’ziga xos mahsuli, balki ijtimoiy va shaxsiy omillarning birlashuvidan hosil bo’lgan murakkab ruhiy holatdir. Bu asarda, *diniy marosimlarning eng oliysi – o’lim marosimiga* alohida e’tibor qaratilgan. Bu yerda diniy chaqiriq shaxsiy inqiroz – insonning o’lim bilan yuzmayuz kelishi orqali yuzaga chiqadi. Inson hech qachon e’tiqod va marosimlar orqali yupanchga **o’lim oldi marosimida (viaticum)** – hayot yo’lining so’nggi bosqichida oladigan oxirgi dalda paytidek muhtoj bo’lmaydi. Bunday marosimlar ibtidoiy dinlarning deyarli barchasida mavjud bo’lib, insonning ichki qo’rquvini va ich-ichini kemiruvchi shubhani yengishga xizmat qiladi. Oila va ish joyi kabi ijtimoiy muhitlarda nutqning to’g’ri ishlatilishi insonlar o’rtasida hurmat va o’zaro tushunishni mustahkamlashda muhim rol o’ynaydi. Shirinso’zlik va haqoratli nutqning qo’llanishi, ayniqsa, oilaviy va ish muhitlarida, shaxslar o’rtasidagi ijtimoiy me’yorlarga, axloqiy qadriyatlar va etiket talablariga mos ravishda amalga oshiriladi. Bu jarayon, nafaqat ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, balki odamlar o’rtasidagi munosabatlar va hamkorlikni mustahkamlash uchun ham zarurdir. Boshqacha aytganda, nutq orqali o’zaro hurmat va madaniyatni saqlab qolish, bu jamiyatda umumiy qadriyatlar asosida o’zaro aloqalarni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.

Har bir odobli tilda o’ziga xos qoidalar mavjud<sup>25</sup>. Odobli bo’lmagan mavzular uchun odobli atamalarni muhokama qilishni boshlashdan oldin, odobga oid ba’zi asosiy qoidalarni belgilashimiz kerak. Nima odobli xulq-atvor hisoblanishi insonlar guruhi orasida farq qiladi va eng kichik guruh faqat ikki kishidan iborat bo’lsa, bu farq cheksizdir. Shuning uchun, Ed va Jo bir-birlariga qanday murojaat qilishlari ularning nuqtayi nazaridan odobli bo’lishi mumkin, lekin Sally uchun bu odobsiz bo’lishi mumkin. O’tgan asrlarda odobli hisoblangan xulq-atvorlar bugungi kunda kulgili va haddan tashqari asossiz bo’lib ko’rinishi mumkin va agar XXI asrda amalda qo’llanilsa, bu nojoiz bo’lardi<sup>26</sup>.

**Harun ar-Rashid bir tush ko’radi:** tushida og’zidagi barcha tishlari to’kilib, bitta tishi qolgan emish. Ertalab turib bir ta’birchini chaqirib, tush ta’birini so’raydi. Ta’birchi:

– Ey, Amir ul-mo’minin, sening huzuringda barcha qarindosh-urug’laring o’ladi, sendan boshqa hech kim qolmaydi, – deydi.

<sup>25</sup> Murray Lindley. English Grammar, adapted to the different classes of learners. With an appendix, containing rules and observations for promoting perspicuity in speaking and writing. Wilson, Spence and Mawman. York.: 1824. –P. 174.

<sup>26</sup> Allan K., Burrige K. Forbidden Words. Taboo and the Censoring of Language. – Cambridge University Press, 2007. –B. 39.

Harun ar-Rashid: – Mening yuzimga shunday dard-anduh bilan to‘lgan so‘z aytasanmi? Agar mening hamma qarindosh-urug‘larim o‘lsalar, men nima ish qilaman, qanday qilib kun kechiraman? – deydi va ta’birchini yuz darra urishga buyuradi. So‘ngra boshqa bir ta’birchini chaqirtirib, tushining ta’birini so‘raydi. Bu ta’birchi:

– Ey, Amir al-mo‘minin, sening umring barcha qarindoshlaringning umridan uzun bo‘ladi, – deydi.

Shunda Harun ar-Rashid:

– Ha, barcha aqlning yo‘li birdir va ikkovining ta’biri bir yerdan chiqdi. Ammo birinchi ta’birchi bilan ikkinchi ta’birchining iborasi orasida farq kattadir, – deydi va keyingi ta’birchiga yuz tilla berishni buyuradi<sup>27</sup>.

Ushbu rivoyatda shirinso‘zlik, haqoratli nutq va tabu o‘rtasidagi farq yorqin tarzda namoyon bo‘ladi. Har ikki ta’birchi Harun ar-Rashidning tushini bir xil ma’noda talqin qilgan bo‘lsa-da, ularning nutq uslubi va ifoda shakli juda farqli bo‘lgan. Bu esa **tabu – ya’ni muomala madaniyatida nozik mavzularni qanday ifoda etish zarurligi** haqida muhim dars beradi. Rivoyatdagi holat orqali biz ijtimoiy muloqotda shirinso‘zlikning ahamiyatini va **tabu me’yorlariga rioya qilish muhimligini** qayd etamiz.

Uchinchi bobning (3.3) uchinchi paragrafi “**Tabu so‘zlarning qo‘llanishida gender tushunchasining o‘rni**” deb nomlangan. Tabu so‘zlarning gender nuqtayi nazaridan qo‘llanilishi jamiyatda erkak va ayol nutq madaniyati, ijtimoiy rollar va til strukturasi bilan bevosita bog‘liqdir. Turli madaniyatlarda tabu so‘zlar erkaklar va ayollar tomonidan turlicha ishlatiladi yoki ularga nisbatan har xil ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat genderning nafaqat biologik, balki psixologik va madaniy omillar ta’sirida shakllanishini anglatadi. Jins (inglizcha: gender, lotincha: genus “mehribon”) – erkaklik va ayollik bilan bog‘liq xususiyatlar spektri. Kontekstga qarab, bu xususiyatlar ijtimoiy tuzilmalarni (ayniqsa, gender va boshqa ijtimoiy rollar) yoki gender identifikatsiyasini o‘z ichiga olishi mumkin<sup>28</sup>.

Gender tabularining lingvistik jihatlari *maskulinlik va femininlik* stereotiplarida aniq ko‘rinadi. Jamiyatda ayollik va erkaklik tushunchalari ma’lum bir me’yorlar bilan cheklangan bo‘lib, ushbu cheklovlar tildagi tabu elementlari orqali mustahkamlanadi<sup>29</sup>. Shu boisdan, “gender” va “jins” tushunchalari o‘rtasidagi farq ijtimoiy konstruktivizm nazariyasiga tayanadi, bu esa tabiiy va o‘z-o‘zidan mavjuddek tuyuladigan tafovutlarni aslida ijtimoiy jarayonlar shakllantirishini ko‘rsatadi. “Jins” tushunchasi biologik asosga ega bo‘lsa, “gender” esa jamiyat tomonidan belgilangan ijtimoiy va madaniy rollarni o‘z ichiga oladi. Shu bois ayol va erkaklarning jamiyatdagi mavqeyi hamda ular o‘rtasidagi farqlar nafaqat biologik omillar, balki ijtimoiy normalar va madaniy kontekst bilan ham bog‘liq<sup>30</sup>. Bu farqlarni mustahkamlovchi eng asosiy mexanizmlardan biri **tabu** hisoblanadi.

<sup>27</sup> Кайковус У. Қобуснома. – Тошкент: Ўз.дав.нашр, 1968. – В. 38-39.

<sup>28</sup> Барчунова Т.В. Восмеричный путь – Германцы [электронный ресурс]. 2006. – С. 532. – Большая российская энциклопедия.

<sup>29</sup> Барашян Валентина Карапетовна. Конституирование гендерного глоссария: проблема парадигмальных ограничений. Историческая социально - образовательная мысль. 2013.

<sup>30</sup> Здравомыслова Е., Тёмкина А. Социальное конструирование гендера: феминистская теория. Введение в гендерные исследования. Ч. I: Учебное пособие. – Харьков, СПб., 2001.

Shuningdek, ayollarga xos til ularga o'z fikrlarini qat'iy ifodalash imkoniyatini bermaydi va ularni mavzularni noaniq hamda befarq ifodalashga undaydi. Ayollar shaxs sifatida emas, balki obyekt sifatida ko'riladi, bu esa ularning jamiyatda jiddiy qabul qilinishiga to'sqinlik qiladi. Natijada ayollar hokimiyat va ta'sir doirasidan chetlashtiriladi, chunki ularning lingvistik xulq-atvori bunday vakolatni egallashga noloyiq ekanliklarini "isbotlaydi"<sup>31</sup>. Eng istehzo uyg'otadigan jihat shundaki, ular buni o'z kamchiliklari sifatida qabul qilib, shu holatga moslashadilar.

## XULOSA

1. Tabu tushunchasining kelib chiqishi, uning ijtimoiy va lingvistik nuqtayi nazaridan o'rganilishi, leksik-semantik xususiyatlari hamda sotsiolingvistik jihatlari zamonaviy fan yutuqlariga tayangan holda tahlil qilinishi lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tabu so'zlar har bir jamiyatning madaniy, diniy, axloqiy va sotsiologik me'yorlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning ishlatilishi va qabul qilinishi turli tillarda va madaniy muhitlarda sezilarli farqlarga ega.

2. Tabuning insoniyat tarixida qachon vujudga kelgani haqidagi aniq fikr va tasavvurlar fan taraqqiyotining bugungi davrigacha umumlashtirilmagan. Ammo ba'zi adabiyotlardagi qaydlarda muqaddas hisoblangan ba'zi insonlar, hayvonlar, narsalar nomini aytish, ularga yaqinlashish taqiqlangan, aks holda zararli oqibatlarga olib keladi deb tushuniladigan diniy ishonch, taqiq ko'rinishida himoyalannuvchi narsa, so'z, munosabat tabu deb tushunilgan.

3. Tabu so'zlarning ishlatilishi har bir jamiyatning ijtimoiy-madaniy tamoyillariga bog'liq bo'lib, vaqt o'tishi bilan ularning qo'llanishi o'zgarib boradi. Shuningdek, ularning jamiyatdagi o'rni va ta'siri turli omillar ta'sirida shakllanib, til madaniyatining ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. Tabu tushunchasining kelib chiqishi dastlab diniy va sehrlil e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tabu dastlab muqaddas yoki xavfli deb hisoblangan sohalarni qamrab olib, vaqt o'tishi bilan ijtimoiy me'yorlarga moslashgan.

4. Tabuning ijtimoiy birlik sifatida o'rganilishi jamiyatda tabu so'zlarga bo'lgan munosabat va ularning ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishdagi o'rnini aniq belgilashga asos yaratadi. Har bir jamiyatda tabu me'yorlari madaniyat, axloq va din bilan chambarchas bog'langan holda rivojlangani kuzatildi.

5. Tabu til hodisasi sifatida so'zlarning o'zgarishi, ularning o'rnini evfemizmlar egallashi va ba'zi tabu so'zlarning jamiyatda qabul qilinish darajasi tahlil qilinadi. Ko'rinadiki, vaqt o'tishi bilan ba'zi tabu so'zlar norma sifatida tilga kirib boradi, ayrimlari esa aksincha, yanada taqiqlangan holga keladi. Ingliz tilidagi tabu so'zlar va ularning leksik xususiyatlari tabu so'zlarning tasnifi va ularning nutqda ishlatilish xususiyatlari kontekstga bog'liq ravishda qo'llanadi va ba'zan yumshoq muqobillari bilan almashtiriladi.

6. O'zbek tilidagi tabu so'zlar va ularning leksik jihatlari – o'zbek tilida tabu so'zlarning shakllanishida diniy va axloqiy me'yorlarning ta'siri sezilarlidir. Bu tilning rasmiy va norasmiy uslublarida bunday so'zlarning qo'llanishiga keskin

---

<sup>31</sup> Lakoff R.T. Language and Woman's Place. – Oxford: Oxford university press, 2004. – P. 45-46.

cheklov qo'yilganligi bilan bog'liq. Ijtimoiy tabularning tilda aks etishi leksik-semantik o'zgarishlar – tabu so'zlarning o'zgaruvchan tabiati, ularning turli kontekstlarda qanday yumshatilishi yoki mutlaqo boshqa so'zlar bilan almashtirilishi kuzatiladi.

7. Ba'zi tabu so'zlar asta-sekinlik bilan ijtimoiy nutqda yumshoq shakllarga ega bo'lib borishi mumkin. Har ikkala tilning tabu so'zlarga bo'lgan munosabatini o'rganish ingliz tilida ba'zi tabu so'zlarning ishlatilishi nisbatan yumshoq bo'lsa, o'zbek tilida ularning ishlatilishi deyarli cheklangan yoki evfemizmlar orqali berilishi kuzatildi.

8. Har qanday jamiyatda tabu so'zlarning ishlatilishi madaniy, ijtimoiy va kommunikativ jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning qo'llanilishi jamiyatning sotsiolingvistik munosabatlari asosida shakllanadi. Xususan, jamiyatda tabu so'zlarni diskursiv tabu qilish amaliyotida qo'llashning asosiy usullari evfemizatsiya, kriptolaliya, dezinformatsiya, ritualizatsiya hamda "o'ziga tushuntirishga ruxsat berish" kommunikativ usulidan iborat bo'ladi.

9. Ingliz va o'zbek xalqlarining nutqiy jarayonida qo'llaniladigan shirinso'zlik va haqoratli nutq bilan bog'liq tabu so'zlar oilada va ish joylarida jamiyatdagi etiket, ijtimoiy normativlar va axloqiy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqdir.

10. Gender nuqtayi nazaridan tabu so'zlarning qo'llanishi va ta'siri tadqiqi natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zbek jamiyatida ayollar va erkaklar nutqida tabu so'zlardan foydalanish darajasida sezilarli farq bor. Ayollar bunday so'zlarni ishlatishdan ko'ra ko'proq evfemizmlarga murojaat qiladilar. Ingliz jamiyatida ham bu farq saqlanib qolgan bo'lsa-da, ayollar va erkaklar nutqida tabu so'zlardan foydalanish bo'yicha chegaralar nisbatan yumshoqroq.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ  
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**ШЕРМАМАТОВА ЗАЙНАБ АЗИМЖОН КИЗИ**

**СОЦИО-ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТАБУИРОВАННЫХ СЛОВ  
В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и  
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
**диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

**Самарканд – 2026**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.2.PhD/Fil3616

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский(резюме)) размещён на веб-сайте Научного совета ([www.samdchti.uz](http://www.samdchti.uz)), а также на информационном образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** Хайруллаев Хуршиджон Зайниевич  
доктор филологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Сулайманова Нилуфар Джаббаровна  
доктор филологических наук, профессор

Рузиева Ситора Асоровна  
доктор филологических наук, доцент

**Ведущая организация:** Андижанский государственный институт  
иностранных языков

Защита диссертации состоится 24 апреля 2026 г. в 12<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 по присуждению ученых степеней при Самаркандском государственном институте иностранных языков. Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарина, дом 43. Тел.: (99866) 238-29-37; факс: (99878) 210-00-18; e-mail: [info@samdchti.uz](mailto:info@samdchti.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером 62975). Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарина, дом 43. Тел: (99866) 238-29-37.

Автореферат диссертации разослан 9 апреля 2026 года.  
(реестр протокола рассылки за № 23 от 9 апреля 2026 года).



**Н.З. Насруллаева**  
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

**У.У. Кулдошов**  
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

**Д.А. Киселёв**  
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

*J-B*

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировой лингвистике социально-лингвистический анализ слов-табу является одним из важных направлений исследований, который находится в центре внимания таких областей, как теория текста, прагматическая лингвистика, функциональная стилистика, функциональный синтаксис и функциональная лексикология. Стремление к всестороннему описанию языковых явлений с точки зрения процесса общения, а также растущая потребность в изучении семантической модификации языковых единиц на разных уровнях в социальном контексте свидетельствуют об актуальности исследования данной темы. Табуированные слова тесно связаны с моральными, религиозными, социальными нормами общества, они играют важную роль в реализации социальных отношений в речи, а также в преодолении трудностей в общении членов общества. Изучение лингвистических, социально-культурных и прагматических особенностей табуированных слов в английском и узбекском языках служит не только анализу их семантической структуры, но и выявлению их влияния на межкультурную коммуникацию. Это связано с развитием таких современных направлений в лингвистике, как социолингвистика, прагмалингвистика, когнитивная лингвистика, нейролингвистика, психолингвистика, целью которых является изучение человеческой речи, в частности, в виде текста. Возрастает необходимость изучения формирования табу и анализа его семантических, коммуникативных знаков и свойств на основе достижений в развитии этих областей. Растущая потребность в инновациях в этой области ставит перед лингвистическими исследованиями новые задачи, связанные с табу и его коммуникативно-семантическими проблемами.

В мировой лингвистике социолингвистический анализ табу является одним из важных направлений современных исследований, который изучается в тесной связи с такими направлениями, как социолингвистика, прагмалингвистика, лингвистика текста, функциональная стилистика, лексикология и семантика. Явление табу сформировано в разных культурах нравственными, религиозными, психологическими и социальными ограничениями, и то, как они проявляются в языке, рассматривается как важный научный вопрос на пересечении лингвистики и культурологии. Слова-табу тесно связаны с такими процессами, как семантические модификации, эвфемизация, дисфемизация, изменения коннотативного значения в языковой системе. В лингвистике этот феномен анализируется в контексте лингвистической табуировки, прагматических ограничений, психолингвистических особенностей, а также культурных и исторических изменений. В частности, изучение лингвистических, социопрагматических и культурных аспектов табуированных слов в английском и узбекском языках служит не только анализу их семантической структуры, но и выявлению их связи с нравственными нормами и социальными ценностями в обществе.

В нашей стране внимание к государственному языку признано в качестве одного из приоритетных направлений духовного развития, особое внимание уделяется повышению престижа узбекского языка в общественной жизни и на международном уровне. Язык является не только средством общения, но и одним из важных факторов национального самосознания, сохранения и развития культурного наследия. В Указе Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в нашей стране» повышение авторитета узбекского языка в общественной жизни нашего народа и на международном уровне, воспитание молодого поколения в духе патриотизма, преданности национальным традициям и ценностям, обеспечение полноценного внедрения государственного языка в нашей стране определены как важные задачи<sup>32</sup>. Вместе с тем обозначены стратегические цели и приоритетные направления по сохранению и развитию языков различных наций и народностей, проживающих в Узбекистане, созданию благоприятных условий для изучения узбекского языка как государственного, дальнейшему развитию языковой политики. В связи с этим вопрос языка признан одним из основных принципов национальной идеи, и подчеркивается, что в условиях глобализации каждый народ должен уделять особое внимание сохранению и развитию своего языка, культуры и ценностей. В данном процессе изучение различных социолингвистических аспектов языка, в частности, социолингвистических особенностей табуированных слов, сохраняет свою актуальность как одно из важных научных направлений.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» от 7 февраля 2017 года, Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах» от 5 июня 2018 года, № ПП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, № ПП-5117 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан» от 19 мая 2021 года, № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года, а также в ряде нормативно-правовых документов, принятых в данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий

---

<sup>32</sup> Указ Президента Республики Узбекистан No УП-6084 "О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране" от 20 октября 2020 года.. <https://lex.uz/docs/>

республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

